

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / SENTABR /
9-SON, I-QISM

Google
scholar

RePEc
RESEARCH PAPERS
IN ECONOMICS



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, sentabr.
I-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA INVESTITSION FAOLIYATNI RAG'BATLANTIRISH VA BAHOLASHNING XORIJIY TAJRIBASI	34
Aytmuratova Ulbiki Jalgasovna	
BREND POZITSIYALASH STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISHDA BOZOR TADQIQOTLARI METODIKASI	41
Jumayeva Zulfiya Qayumovna	
GLOBAL MOLIYAVIY BEQARORLIKNING O'ZBEKISTON MILLIY VALYUTASI BARQARORLIGIGA TA'SIRI	46
Davlatova Nilufar Avazovna	
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING MAKROIQTISODIY SAMARADORLIGI: MANZILLI SAMARADORLIK INDEKSI (MSI) ASOSIDA BANDLIK DASTURLARINI BAHOLASH (O'ZBEKISTON MISOLIDA)	50
Eshmurodov Adhamjon Rahmonjonovich	
АНАЛИЗ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯ ООО «SAM PULSAR DISTRIBUTORS»	61
Мусаева Шоира Азимовна	
KICHIK BIZNESDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINING O'RNI VA AHAMIYATI	68
Tukhtasinova Intizorkhon Sherzod qizi	
GLOBALLASHUV DAVRIDA JAHON IQTISODIYOTIDAGI O'ZGARISHLARNING YANGI O'ZBEKISTONGA TA'SIRI	73
Jahongir Nurulloyevich Jurayev	
YASHIL INNOVATSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT VA XUSUSIY SEKTOR HAMKORLIGI.....	77
Nasulloeva Oydinoy Saidovna	
ПРИВЛЕЧЕНИЕ МОЛОДЁЖИ К ЭКСПОРТУ ЦИФРОВЫХ УСЛУГ: МЕХАНИЗМ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ.....	82
Палвонова Севара Бахромовна	
MINTAQA IQTISODIYOTINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISHDA IT-PARKLARNING NAZARIY VA INSTITUTSIONAL ASOSLARI	94
Sultanova Zuxra Jaksilikovna	
INSON KAPITALINING KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI SHAKLLANTIRISHDAGI ROLI.....	99
Baymuradov Shoxrux Maxmudovich	
Dilmurodov Komiljon Ahmad o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA ENERGIYA SAMARADORLIGINI MONITORING QILISHNING INTEGRATSIYALASHGAN UZEMS MODEL 103	
Bobobekov Ergash Abdumalikovich	
AUDIT JARAYONIDA MOLIYAVIY FIRIBGARLIK BELGILARINI ANIQLASHNING TAHLILIY TARTIB-TAOMILLARINI TAKOMILLASHTIRISH	108
Xusanov Shuxrat Burxanovich	



AUDIT JARAYONIDA MOLIYAVIY FIRIBGARLIK BELGILARINI ANIQLASHNING TAHLILIIY TARTIB-TAOMILLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Xusanov Shuxrat Burxanovich
Farg'ona davlat texnika universiteti,
mustaqil tadqiqotchi, auditor
ORCID: 0009-0008-5679-4811

Annotatsiya. Moliyaviy hisobot audit jarayonida moliyaviy firibgarlik belgilarini aniqlashda tahliliy tartib-taomillardan foydalanish imkoniyatlari o'rganilgan. Alohida moliyaviy ko'rsatkichlarni an'anaviy tahlil qilishdan izchil ravishda tavakkalchilikka yo'naltirilgan tahliliy tartib-taomillar tizimiga o'tish zaruriyati ilmiy jihatdan asoslangan. Bazaviy, kengaytirilgan va raqamli firibgarlikka qarshi tahlilni, shuningdek, aniqlangan og'ishlar hamda tavakkalchilik ko'rsatkichlarining xususiyatiga qarab tahlil darajalari o'rtasida o'tish mezonlarini qamrab oluvchi uch bosqichli tizim taklif etilgan. Tahliliy anomalialar, "qizil bayroqlar" (Red Flags) va qo'shimcha auditorlik tartib-taomillari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik aniqlangan.

Kalit so'zlar: moliyaviy firibgarlik, audit, tahliliy tartib-taomillar, auditorlik riski, "qizil bayroqlar" (Red Flags), anomaliya, raqamli tahlil, professional skeptitsizm, auditorlik dalillari, auditning xalqaro standartlari.

Аннотация. Исследованы возможности применения аналитических процедур для выявления признаков финансового мошенничества в процессе аудита финансовой отчетности. Обоснована необходимость перехода от традиционного анализа отдельных финансовых показателей к системе аналитических процедур, последовательно ориентированных на оценку рисков. Предложена трехступенчатая система, включающая базовый, расширенный и цифровой анализ, направленный на выявление признаков финансового мошенничества, а также критерии перехода между уровнями в зависимости от характера выявленных отклонений и показателей риска. Определена взаимосвязь между аналитическими аномалиями, «красными флагами» (Red Flags) и дополнительными аудиторскими процедурами.

Ключевые слова: финансовое мошенничество, аудит, аналитические процедуры, аудиторский риск, «красные флаги» (Red Flags), аномалия, цифровой анализ, профессиональный скептицизм, аудиторские доказательства, международные стандарты аудита.

Abstract. The potential application of analytical procedures for identifying indicators of financial fraud during financial statement audits is examined. The need to move from the traditional analysis of individual financial indicators to a systematic framework of risk-oriented analytical procedures is substantiated. A three-stage framework is proposed, comprising basic, advanced, and digital fraud-detection analysis, along with criteria for transitioning between these levels depending on the nature of identified deviations and risk indicators. The relationship between analytical anomalies, red flags, and additional audit procedures is identified.

Keywords: financial fraud, audit, analytical procedures, audit risk, red flags, anomaly, digital analysis, professional skepticism, audit evidence, International Standards on Auditing.

KIRISH

Raqamli texnologiyalarning zamonaviy rivojlanishi, buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish va qayta ishlanadigan iqtisodiy axborotlar hajmining ortishi moliyaviy hisobot auditini o'tkazish shartlarini sezilarli darajada o'zgartirmoqda. Ushbu jarayonlar auditorning axborot imkoniyatlarini kengaytirish bilan bir qatorda, moliyaviy firibgarlikni yashirish va amalga oshirishning yangi usullarini yuzaga keltirmoqda. Avtomatlashtirilgan hisob tizimlaridan foydalanish qisqa vaqt ichida ko'p miqdordagi xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirish, o'zaro hisob-kitoblarning murakkab sxemalarini qo'llash, elektron hisob yozuvlariga tuzatishlar kiritish va ko'p miqdordagi o'zaro bog'liq operatsiyalarni shakllantirish imkonini beradi. Bunday sharoitda, asosan, hujjatli tekshirish va operatsiyalarni tanlab tekshirishga asoslangan an'anaviy auditorlik muolajalarini qo'llash bilan bir qatorda, moliyaviy firibgarlikning yashirin belgilarini o'z vaqtida aniqlashga qaratilgan zamonaviy tahliliy yondashuvlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.



Moliyaviy firibgarlikning o'ziga xos xususiyati uning qasddan amalga oshirilishidir. Firibgarlik harakatlarini sodir etuvchi shaxslar hujjatlarni qalbakilashtirish, soxta xo'jalik operatsiyalari, hisob baholarini manipulyatsiya qilish, til birlashtirish, ichki nazorat vositalarini chetlab o'tish, noqonuniy tuzatish o'tkazmalari va boshqa harakatlar orqali ularni yashirishga urinadilar. Shu sababli an'anaviy auditorlik tanlovi hajmini oshirish bilan bir qatorda, firibgarlik belgilarini aniqlash imkoniyatlarini kengaytiruvchi qo'shimcha tahliliy vositalardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Raqamli hisob ma'lumotlari hajmining o'sishi va moliyaviy firibgarlik usullarining murakkablashuvi an'anaviy tanlab tekshirish usullarini zamonaviy tahliliy yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Tahliliy protseduralar auditda keng qo'llaniladi, biroq ularni moliyaviy ko'rsatkichlarning noodatiy o'zgarishlarini aniqlash bilan bir qatorda, ketma-ket tahliliy mexanizm asosida qo'llash ularning samaradorligini yanada oshirish imkonini beradi.

Bizningcha, auditorlik tartib-taomillarini takomillashtirish alohida muomalalarni tanlab tekshirish usullarini hisob ma'lumotlari massividagi anomalialarni tavakkalchilikka yo'naltirilgan holda aniqlash hamda keyinchalik moliyaviy firibgarlikning yuqori xavfi belgilariga ega bo'lgan muomalalarni maqsadli o'rganish bilan uyg'unlashtirish orqali amalga oshirilishi lozim.

Tadqiqotning maqsadi auditorlik tekshiruv jarayonida moliyaviy firibgarlik belgilarini aniqlashda tahliliy muolajalardan foydalanishning uslubiy yondashuvini ularni tahliliy tadqiqot darajalari bo'yicha tizimlashtirish hamda aniqlangan anomalialar va risk-indikatorlar xususiyatiga qarab chuqurlashtirilgan va raqamli muolajalarga o'tish mezonlarini aniqlash orqali takomillashtirishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda moliyaviy firibgarlikni aniqlashda tahliliy muolajalar imkoniyatlarini tadqiq etish bir necha o'zaro bog'liq yo'nalishlarda rivojlanmoqda.

Dastlabki yo'nalishlardan biri hisobotlarni manipulyatsiya qilish ehtimolini aniqlash uchun moliyaviy ko'rsatkichlar va ularning noodatiy o'zaro bog'lanishlaridan foydalanish edi. Debitorlik qarzlari, yalpi marja, aktivlar sifati, sotuvlarning o'sish sur'atlari, hisob-kitoblari va boshqa ko'rsatkichlarning dinamikasini tavsiflovchi moliyaviy koeffitsiyentlar yig'indisiga asoslangan Beneish M-Score modeli alohida o'rin tutadi. Ushbu yo'nalishning keyingi rivojlanishi moliyaviy hisobotdagi jiddiy buzilishlar belgilarini aniqlashga yo'naltirilgan Dechow F-Score bilan bog'liq. Keyingi empirik tadqiqotlar har ikkala modeldan yuqori riskli kompaniyalarni dastlabki identifikatsiyalashning tahliliy vositalari sifatida foydalanish mumkinligini tasdiqladi. Masalan, Malayziya kompaniyalari ma'lumotlari bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot Beneish M-Score va Dechow F-Score modellari diagnostic qo'llanilishini ko'rsatdi [1].

Rossiya ilmiy adabiyotida moliyaviy firibgarlik belgilarini aniqlash uchun tahliliy muolajalarni qo'llash masalasi, asosan, iqtisodiy tahlil, audit, jiddiy buzib ko'rsatish xavfini baholash va moliyaviy hisobotning ishonchligini tadqiq etish yo'nalishlarining o'zaro bog'liqligi asosida rivojlanmoqda. Tadqiqotlarning katta qismida moliyaviy ko'rsatkichlarning noodatiy dinamikasi va ular o'rtasidagi qonuniy bog'liqliklarning o'zgarishi yuqori riskning dastlabki signallari sifatida xizmat qilishi mumkinligi qayd etiladi.

Rossiya tadqiqotlarining alohida yo'nalishi bevosita auditda tahliliy muolajalar uslubiyati bilan bog'liq. Masalan, E. A. Jeleznikovaning tadqiqotida tahliliy muolajalar sotuvlar auditiga [2], ya'ni tushumni manipulyatsiya qilish riski nuqtayi nazaridan, ayniqsa, ahamiyatli bo'lgan sohalaridan biriga nisbatan ko'rib chiqiladi. G. A. Yudina, E. Yu. Vlasova va G. Ya. Vyatkina [3] ishlarida tahliliy muolajalarni moliyaviy hisobotning alohida ko'rsatkichlarini buzib ko'rsatish xavfini baholash uchun qo'llashga asoslangan yondashuv rivojlantirilib, keyinchalik xavf hisobot shakllari va umuman hisobot darajasida umumlashtiriladi.

O'zbekiston ilmiy tadqiqotlarida tahliliy tartib-taomillarni qo'llash masalalari an'anaviy ravishda moliyaviy hisobot auditi sifatini oshirish, auditorlik riskini baholash, jiddiy buzilishlarni aniqlash, ichki nazoratni takomillashtirish va auditorlik dalillarini olish kontekstida ko'rib chiqiladi. Bunda tahliliy muolajalar yuqori tavakkalchilik sohalarini aniqlash va keyinchalik auditorlik tekshiruvining xususiyati hamda hajmini aniqlashtirishning muhim vositasi sifatida qaratiladi.

O'zbekiston Auditorlar palatasi mutaxassislari 520-sonli "Tahliliy tartib-taomillar" va 240-sonli "Firibgarlikka nisbatan auditorning majburiyatlari" AXS talablarini milliy bozorning o'ziga xos xususiyatlariga moslashtiruvchi tarmoq tadqiqotlari va tahliliy hisobotlarni chop etadilar [4].

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi respublikada auditorlik faoliyatini xalqaro standartlar asosida rivojlantirish choralari amalga oshirib bormoqda. Jumladan, XASlarni o'zbek tiliga tarjima qilish bo'yicha tegishli ishlar amalga oshirilmoqda. Tadqiqotda 200 [5], 230 [6], 240 [7], 315 [8], 330 [9], 500 [10], 520 [11]-sonli XASlarning asosiy qoidalaridan foydalanildi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotni tayyorlashda tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, guruhlash va tasniflash, koeffitsiyentli tahlil, trend tahlili, moliyaviy tahlil usullari, tavakkalchilikka asoslangan yondashuv, ma'lumotlarni tahlil qilish usullari hamda auditorning professional fikridan foydalanildi.


TAHLIL VA NATIJALAR

Tahliliy muolajalar an'anaviy ravishda ko'rsatkichlar dinamikasini, moliyaviy hisobot tuzilishini, moliyaviy koeffitsiyentlarni va alohida ko'rsatkichlar o'rtasidagi munosabatlarni tadqiq qilish uchun qo'llaniladi.

Oddiy auditda tahliliy amallar ko'pincha hisobot ko'rsatkichlarini taqqoslash, koeffitsiyentlarni hisoblash va dinamikani tahlil qilish uchun qo'llaniladi. Bizningcha, firibgarlikni aniqlashda ushbu yondashuvlarni yanada kengaytirish maqsadga muvofiq. Shu sababli moliyaviy firibgarlikni aniqlash maqsadida ularning funksional vazifasini kengaytirish taklif etilmoqda. Taklif etilayotgan yondashuvda tahliliy protsedura nafaqat tashkilotning moliyaviy holatini umumiy baholash funksiyasini bajarishi, balki anomal xo'jalik operatsiyalari va moliyaviy ko'rsatkichlarni aniqlashning birlamchi mexanizmi sifatida ham namoyon bo'lishi lozim. Natijada quyidagi ketma-ketlik taklif etiladi:

Tahliliy protsedura → chetga chiqish → anomaliya → firibgarlik indikatori → xavfni baholash → qo'shimcha auditorlik protsedurasi.

Masalan, bevosita hisobot davri tugashidan oldin tushumning keskin oshishi o'z-o'zidan firibgarlikning yetarli dalili bo'la olmaydi. Biroq ushbu og'ishning debitorlik qarzlarning o'sishi, ularning aylanish ko'rsatkichlarining yomonlashuvi, davr oxirida qo'lda amalga oshirilgan o'tkazmalarining sezilarli hajmi va keyinchalik operatsiyalarning bekor qilinishi bilan birga kuzatilishi qo'shimcha auditorlik tartib-taomillarini talab qiladigan o'zaro bog'liq risk-indikatorlar to'plamini ifodalaydi. Shunday qilib, nafaqat alohida og'ishlarni, balki ularning kombinatsiyalari va o'zaro aloqalarini ham baholash taklif etiladi. Biz tomondan tahliliy tartib-qoidalarini "Uch darajali tavakkalchilikka yo'naltirilgan tahliliy tartib-taomillar tizimi" asosida tashkil etish taklif etiladi (1-rasm).



1-rasm. Uch darajali tavakkalchilikka yo'naltirilgan tahliliy tartib-taomillar tizimi¹

Shunga ko'ra:

I daraja. Asosiy tahliliy jarayonlar. Birinchi daraja moliyaviy hisobotlarni birlamchi diagnostika qilish va yuqori risk zonalarini aniqlash uchun mo'ljallangan.

Bu bosqichda auditor hali aniq firibgarlik operatsiyasini izlamaydi. U tashkilot ko'rsatkichlarining qaysi jihatlarida noodatiy holatlar mavjudligini aniqlashga harakat qiladi. Asosiy tahliliy tadbirlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- gorizontali tahlil;
- vertikal tahlil;
- trend tahlili;



- koeffitsiyentli tahlil;
- haqiqiy ko'rsatkichlarni budget bilan taqqoslash;
- davrlararo taqqoslash;
- ishonchli ma'lumotlar mavjud bo'lganda tarmoq ko'rsatkichlari bilan taqqoslash;
- o'zaro bog'liq ko'rsatkichlarning o'sish sur'atlarini tahlil qilish.

Bizning fikrimizcha, firibgarlikni aniqlashda ko'rsatkichning mutlaq o'zgarishidan ko'ra iqtisodiy jihatdan kutilgan bog'liqlikning buzilishi ko'proq axborot berishi mumkin. Masalan:

$\Delta \text{Tushum} < \Delta \text{Debitor qarzdorlik}$

Tushum 12 foizga, debitorlik qarzlari esa 47 foizga oshdi.

Bu holat o'z-o'zidan firibgarlikdan dalolat bermaydi. Biroq quyidagi savol yuzaga keladi: nima uchun debitorlik qarzlari sotuvlarga nisbatan deyarli to'rt baravar tezroq o'smoqda? Ehtimoliy sabablarga xaridorlarning to'lov intizomining yomonlashuvi, kredit siyosatining o'zgarishi, yirik mijozning paydo bo'lishi, shuningdek, tushumning soxta yoki muddatidan oldin tan olinishi kiradi. Bu holatda tahlil natijasiga ko'ra "firibgarlik aniqlandi" degan iborani qo'llashdan ko'ra, "ikkinchi darajali tahliliy muolajalarni o'tkazishni talab qiladigan yuqori xavf zonasi aniqlandi" degan xulosani bildirish maqsadga muvofiq.

II daraja. Kengaytirilgan auditorlik tahliliy amallari. Shu bosqichdan tavsiya etilayotgan uslubiyotning eng muhim qismi boshlanadi. Agar birinchi daraja "qayerda og'ish bor?" degan savolga javob bersa, ikkinchi daraja "aniqlangan og'ish qaysi xo'jalik muomalalari, kontragentlar, davrlar yoki buxgalteriya yozuvlari hisobiga yuzaga kelgan?" degan savolga javob berishni o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi. Ya'ni auditor moliyaviy hisobot ko'rsatkichidan uning ichki tuzilishiga o'tadi. Masalan, birinchi darajada daromadning g'ayritabiiy yuqori o'sishi aniqlangan. Ikkinchi darajada auditor quyidagilarni tahlil qiladi:

tushum → oylar → oxirgi haftalar → hisobot davrining oxirgi kunlari → xaridorlar → shartnomalar → hisobvara-fakturalar → o'tkazmalar → keyingi to'lovlar (tuzatish kiritishlar).

Bizning fikrimizcha, tahliliy tadbirlarni qo'llashning ikkinchi bosqichida auditor uning quyidagi shakllaridan foydalanishi mumkin bo'ladi (1-jadval).

1-jadval

Tahliliy tadbirlarning ikkinchi bosqichi shakllari tahlili²

T/r	Tahlil shakli	Amalga oshiriladigan tadbirlar
1	Dekompozitsion tahlil	Umumiy ko'rsatkich davrlar, bo'linmalar, mahsulotlar, kontragentlar, menejerlar, hududlar va boshqa belgilar bo'yicha bo'linadi.
2	Moliyaviy va nomoliyaviy axborot tahlili	Masalan, sotuvlar 40 foizga oshdi, ishlab chiqarish hajmi esa atigi 5 foizga oshdi. Bunday nomuvofiqlik qo'shimcha tushuntirishni talab qiladi.
3	Cut-off analytics	Hisobot sanasidan oldingi va keyingi operatsiyalar konsentratsiyasi o'rganiladi.
4	Buxgalteriya provodkalari tahlili	Qo'lda amalga oshirilgan, noodatiy, tuzatish va kechki o'tkazmalarga alohida e'tibor qaratiladi.
5	Amalga oshirilgan tuzatishlar tahlili	29–31-dekabr kunlari foydani ko'paytiruvchi va yanvar oyida bekor qilingan operatsiya alohida e'tibor talab qiladi.
6	Kontragentlar tahlili	Yangi, kam foydalaniladigan, noodatiy yoki iqtisodiy jihatdan xarakterli bo'lmagan kontragentlar ajratiladi.
7	Operatsiyalarning iqtisodiy mantiqini tahlil qilish	Hatto to'g'ri rasmiylashtirilgan operatsiya ham tashkilot biznesi nuqtayi nazaridan g'ayrioddiy bo'lishi mumkin.

Biz tavsiya etayotgan uslubiyotning ikkinchi darajasi yakuniga ko'ra ketma-ketlik zanjiri quyidagicha o'zgaradi:

g'ayrioddiy ko'rsatkich → g'ayritabiiy operatsiya → ehtimoliy qizil bayroq.

Masalan: "Tushumning o'sishi, asosan, hisobot davrining so'nggi besh kunida uchta yangi xaridor bilan amalga oshirilgan operatsiyalar bilan bog'liq bo'lib, tegishli debitorlik qarzlarning katta qismi hisobot sanasidan keyin to'lanmagan". Ko'rib turganimizdek, bunday ta'kidlash birinchi darajadagi tahliliy tadbirlar natijasiga ko'ra berilgan xulosaga nisbatan yanada asoslangan xulosa hisoblanadi.

III daraja. Firibgarlikka qarshi raqamli tahlil. Uchinchi daraja hisob ma'lumotlarining mavjud to'plamini ommaviy avtomatlashtirilgan tarzda tahlil qilish va aniq anomal xo'jalik muomalalarini topish uchun mo'ljallangan. Bu yerda ikkinchi darajadan muhim farq yuzaga keladi. II darajada auditor, asosan, izlanish yo'nalishini shakllantiradi. III darajada esa raqamli vositalar ushbu qidiruvni muomalalar massiviga kengaytirish imkonini



beradi. Masalan, 100 ta o'tkazmadan iborat tanlanmani tekshirish o'rniga, tizim berilgan mezonlar bo'yicha barcha mavjud buxgalteriya yozuvlarini tahlil qilishi mumkin.

Uchinchi darajada birinchi navbatda maxsus dasturlar asosida mavjud bo'lgan *noodatiy xo'jalik muomalalarini avtomatik tarzda qidirish* imkoniyati yuzaga keladi. Masalan:

- qo'lda bajarilgan o'tkazmalarda;
- odatdan tashqari katta miqdordagi o'tkazmalarda;
- bevosita davr yopilishidan oldin kiritilgan xo'jalik muomalalarida;
- dam olish kunlarida ro'yxatga olingan xo'jalik muomalalarida;
- noodatiy foydalanuvchilar tomonidan kiritilgan xo'jalik muomalalarida;
- kam foydalaniladigan hisobvaraqlarda amalga oshirilgan o'tkazmalarda;
- standart tavsifga ega bo'lmagan yozuvlarda;
- hisobvaraqlarning noodatiy o'tkazmalarida.

Uchinchi darajada ikkinchi navbatda xo'jalik muomalalarida takroriy hisobga olingan holatlarni aniqlash ishlari amalga oshiriladi. Bir nechta rekvizitlarning to'liq yoki qisman mos kelishi keyingi tekshirish uchun dublikatlar ro'yxatini shakllantirish imkonini beradi. Bu, ayniqsa, soxta yoki takroriy to'lovlar xavfini o'rganishda foydalidir.

Uchinchi darajada uchinchi navbatda hisobot davrida amalga oshirilgan xo'jalik muomalalaridagi vaqtga xos anomal hodisalarni aniqlash va tahlil qilish ishlari amalga oshiriladi. Bunda auditor mijozda amalga oshirilgan har bir muomala vaqt tasnifiga ega ekanini inobatga oladi. Shu sababli auditor quyidagilarni o'rganadi:

- oyning oxirgi kunlarida;
- yilning oxirgi kunlarida;
- dam olish kunlarida;
- ishdan tashqari vaqtda;
- davr yopilgandan keyin amalga oshirilgan xo'jalik muomalalarini;
- qisqa vaqt oralig'ida amalga oshirilgan o'tkazmalarining g'ayritabiiy yig'indisiga oid muomalalarni.

Bu holatda auditor uchun omillarning quyidagi uyg'unligi alohida ahamiyat kasb etadi:

Yirik summa + qo'lda amalga oshirilgan o'tkazma + 31-dekabr + noodatiy foydalanuvchi + keyingi bekor qilish.

Alohida olinganda bitta belgi tasodifiy bo'lishi mumkin. Biroq beshta belgining birikmasi qo'shimcha tekshiruv zaruratini sezilarli darajada oshiradi. Shunga ko'ra, biz bu holatda "konsentratsiyalashgan raqamli qizil bayroq" tushunchasidan foydalanishni tavsiya etamiz. Bu tushuncha bitta muomala, kontragent yoki muomalalar guruhining o'zaro bog'liq bo'lgan bir nechta anomal xususiyatlari yig'indisini anglatib, ularning birgalikda mavjudligi moliyaviy firibgarlik xavfini oshiradi va auditorlik tartib-taomillarini kengaytirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi (2-jadval).

2-jadval

Moliyaviy firibgarlik belgilarini aniqlash bo'yicha taklif etilayotgan uch bosqichli tahliliy tartib-taomillar tizimi³

Tasnif	1-daraja	2-daraja	3-daraja
Vazifa	Risk hududini aniqlash	Og'ish manbasini aniqlash	Aniq anomal muomalalarni topish
Obyekt	Hisobot ko'rsatkichlari	Guruhlar va muomalalar mazmuni	Hisob yozuvlari massivi
Asosiy savol	Muammo qayerda?	Nima uchun og'ish yuzaga keldi?	Qaysi muomalalar shubhali?
Usullar	Koeffitsiyentlar, dinamika, tarkib	Dekompozitsiya, cut-off, o'zaro aloqalar	Ma'lumotlarni avtomatlashtirilgan tahlil qilish
Ko'lam	Jamlangan ko'rsatkichlar	Batafsil ma'lumotlar	Mavjud bosh to'plam
Natija	Risk hududi	Qizil bayroq	Raqamli anomaliya/qizil bayroqlar kombinatsiyasi
Keyingi qadam	2-daraja	3-daraja	Maqsadli auditorlik taomili

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, uslubiyotda ko'rsatilgan darajalar o'rtasidagi o'tish avtomatik bo'lmashligi kerak. Uch bosqichli tizim barcha uch darajani majburiy o'tish tamoyili asosida emas, balki aniqlangan xavf-xatarga qarab tahlilni izchil chuqurlashtirish tamoyili asosida ishlashi lozim.

3 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan



Amalda har bir ko'rsatkichning uchala darajadan o'tishi shart emas. Bu modelni iqtisodiy jihatdan oqilona qo'llash imkonini beradi. Masalan:

I daraja: og'ish yo'q → standart muolajalar.

I daraja: jiddiy noodatiy og'ish → II daraja.

II daraja: oqilona iqtisodiy tushuntirish va tasdiqlovchi dalillar mavjud → keyingi chuqurlashtirish talab etilmasligi mumkin.

II daraja: Red Flags aniqlandi → III daraja.

III daraja: anomalialar kombinatsiyasi aniqlandi → auditorlik triggeri ishga tushadi → maqsadli tekshiruv.

Natijada:

I → filtrlash → II → filtrlash → III → trigger → maqsadli protsedura.

Ushbu holatda "trigger" shunday shart yoki signalni anglatadiki, uning yuzaga kelishi bilan auditor oddiy tekshiruvdan qo'shimcha, chuqurroq auditorlik tartibiga o'tishi kerak. Auditorlik triggeri — bu oldindan belgilangan belgi, og'ish yoki risk-indikatorlar birikmasi bo'lib, ularning mavjudligi auditorlik muolajalarini kengaytirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Masalan, 31-dekabrdagi yirik xo'jalik muomalasining o'zi hali trigger emas. Biroq, agar bir vaqtning o'zida muomalaning yirik ekanligi + qo'lda amalga oshirilganligi + yangi kontragentga tegishliligi + hisobot sanasidan keyin to'lanmaganligi + yanvar oyida bekor qilinganligi aniqlansa, bunday kombinatsiya chuqur tekshiruv uchun turtki bo'lishi mumkin. Bizning fikrimizcha, bu tushuncha "Uch darajali tavakkalchilikka yo'naltirilgan tahliliy tartib-taomillar tizimi"ni oddiy tartib-qoidalar ro'yxatidan qaror qabul qilish mexanizmiga aylantiradi, ya'ni auditorning qachon I darajadan II darajaga, II darajadan III darajaga va keyin maqsadli tekshiruvga o'tishi kerakligini belgilaydi.

Biz taklif etayotgan uslubiy ishlanma bir nechta standartlar talablarini tizimlashtiradi.

520-AXS, asosan, birinchi va ikkinchi darajalar uchun boshlang'ich mantiqni beradi. Tahliliy tartib-taomillar moliyaviy va nomoliyaviy ma'lumotlar o'rtasidagi ishonchli bog'liqliklarni tahlil qilish orqali moliyaviy ma'lumotlarni baholashni hamda boshqa tegishli ma'lumotlarga mos kelmaydigan yoki kutilayotgan qiymatlardan sezilarli darajada farq qiladigan aniqlangan tebranishlar yoki bog'liqliklarni o'rganishni o'z ichiga oladi. Binobarin, I → II o'tishni, avvalo, 520-AXS mantiqi bilan asoslash mumkin.

315-AXS (2019-yilda qayta ko'rib chiqilgan) tahliliy og'ishni jiddiy buzilish xavfi nuqtayi nazaridan ko'rib chiqish zaruratini asoslash uchun, ayniqsa, muhimdir. 315-AXS tahliliy jarayonni riskka asoslangan yondashuv bilan bog'lash imkonini beradi.

AXS 240 — firibgarlikka qarshi asosiy standartdir. Audit jarayonida mazkur standartning quyidagi talablariga tayanish foydali hisoblanadi:

- kasbiy skeptitsizm;
- tushumni tan olishda firibgarlik riski;
- rahbariyat tomonidan nazorat vositalarini chetlab o'tish;
- buxgalteriya yozuvlarini va boshqa tuzatishlarni testdan o'tkazish;
- odatdan tashqari katta xo'jalik muomalalari;
- rahbariyatning ehtimoliy noxolisligi nuqtayi nazaridan hisob baholarining to'g'riligini aniqlash.

Aynan shular asosida biz tavsiya etayotgan uslubiyotning II darajasi asoslanadi:

Anomaliya → Qizil bayroq → o'tkazmalarni o'rganish → davr oxiri muomalalari → boshqaruv ustidan nazorat → tekshiruvni chuqurlashtirish.

Qayta ko'rib chiqilgan 240-AXS, shuningdek, texnologiyalar va avtomatlashtirilgan vositalarga e'tiborni kuchaytiradi, bu, ayniqsa, III darajani asoslash uchun foydalidir.

330-AXS tavsiya etilayotgan uslubiyotning o'tish mezonlari uchun kuchli metodologik asosni beradi. Standart mantiqi quyidagicha:

baholangan xavf → auditorning javob harakatlari → keyingi auditorlik tartib-taomillarining xususiyati, muddatlari va hajmini o'zgartirish.

Ya'ni uslubiyotda "I → II → III ga o'tish"ni auditorning aniqlangan risk xarakteri va darajasining o'zgarishiga nisbatan differensiallashgan reaksiyasi sifatida talqin qilish mumkin.

Uslubiyot XAS 500 bilan bevosita bog'liq. Biroq undan foydalanishda raqamli anomaliya va auditorlik isboti o'rtasida uslubiy chegara qo'yish lozim. Chunki raqamli tizim orqali shubhali operatsiyaning aniqlanishi hali firibgarlik isbotlanganini anglatmaydi.

Taklif etilayotgan "Uch darajali tavakkalchilikka yo'naltirilgan tahliliy tartib-taomillar tizimi" Xalqaro audit standartlari talablarini o'zgartirmaydi, balki moliyaviy firibgarlik belgilarini aniqlashga nisbatan ularning uslubiy integratsiyasini ifodalaydi. Birinchi daraja XAS 315 va XAS 520 qoidalariga muvofiq moliyaviy va nomoliyaviy axborotning tavakkalchilikka yo'naltirilgan tahliliga asoslanadi; ikkinchi daraja XAS 240, XAS 330 va XAS 520 talablarini hisobga olgan holda aniqlangan og'ishlar va tavakkalchilik ko'rsatkichlarini chuqur tadqiq etishni nazarda tutadi; uchinchi daraja anomal operatsiyalar va ularning to'plamlarini identifikatsiya qilish uchun hisob ma'lumotlarini tahlil qilishning raqamli usullarini qo'llashni nazarda tutadi. Raqamli tahlil natijalari firibgarlikning



mustaqil dalili sifatida emas, balki qo'shimcha auditorlik tartib-taomillarining xususiyati, muddatlari va hajmini aniqlash hamda 330-AXS va 500-AXSga muvofiq yetarli darajadagi tegishli auditorlik dalillarini olish uchun asos sifatida qaraladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, moliyaviy firibgarlik belgilarini aniqlash samaradorligini oshirish maqsadida muallif tomonidan moliyaviy hisobotning jamlangan ko'rsatkichlaridan tortib, alohida xo'jalik operatsiyalari va raqamli hisob yozuvlarigacha bo'lgan tahlilni izchil chuqurlashtirishga asoslangan uch bosqichli tavakkalchilikka yo'naltirilgan tahliliy tartib-taomillar tizimi taklif etilgan. Birinchi darajada bazaviy tahliliy tartib-taomillar orqali potentsial yuqori risk zonalarini aniqlanadi; ikkinchi darajada kengaytirilgan tahliliy tartib-taomillar aniqlangan og'ishlarni dekompozitsiyalash va ularni moliyaviy firibgarlik indikatorlari bilan taqqoslashni ta'minlaydi; uchinchi darajada raqamli texnologiyalar hisob ma'lumotlarining mavjud to'plamini avtomatlashtirilgan holda tadqiq qilish, anomal operatsiyalar va risk-indikatorlar kombinatsiyalarini aniqlash uchun qo'llaniladi. Belgilangan belgilar majmuasini aniqlash qo'shimcha maqsadli auditorlik muolajalariga o'tish va tegishli auditorlik dalillarini olish uchun auditorlik turtkisi sifatida qaraladi. Bunda raqamli tahlil natijalari moliyaviy firibgarlikning mustaqil dalili sifatida qaralmaydi, balki chuqurlashtirilgan tekshiruv yo'nalishini belgilash va auditorning professional mulohazasini shakllantirish uchun axborot asosi sifatida foydalaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Aghghaleh Sh. F., Mohamed Z. M., Rahmat M. M. Detecting Financial Statement Frauds in Malaysia: Comparing the Abilities of Beneish and Dechow Models // Asian Journal of Accounting and Governance. – 2016. – Vol. 7. – URL: ejournal.ukm.my.
2. Железнякова Е. А. Аналитические процедуры в аудите продаж организаций оптовой торговли : дис. ... канд. экон. наук : 08.00.12 / Е. А. Железнякова ; Финансовый университет при Правительстве РФ. – Москва, 2013. – 199 с. : ил.
3. Юдина Г. А., Власова Е. Ю., Вяткина Г. Я. Аналитические процедуры в аудите как инструмент выявления рисков искажения бухгалтерской (финансовой) отчетности // Экономика и предпринимательство. – 2025. – № 7. – URL: scholar.sfu.ru.
4. Analytical procedures // ACCA. – URL: ACCA — Analytical Procedures.
5. XAS 200. «Mustaqil auditorning umumiy maqsadlari va auditni xalqaro audit standartlariga muvofiq o'tkazish». – URL: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi.
6. XAS 230. «Auditni hujjatlashtirish». – URL: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi.
7. XAS 240. «Moliyaviy hisobotlar auditidagi firibgarlikka nisbatan auditor majburiyatlari».
8. XAS 315. «Muhim buzib ko'rsatishlar risklarini tadbirkorlik subyekti va uning muhitini bilish asosida aniqlash va baholash». – URL: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi.
9. XAS 330. «Baholangan risklarga javoban auditorning harakatlari». – URL: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi.
10. XAS 500. «Auditorlik dalillari». – URL: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi.
11. XAS 520. «Tahliliy tartib-taomillar». – URL: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 9/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>